www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

O’zbekistondagi eng sara tarixiy obidalar.

Abdullayev Zohidjon

NamDU, Tarix yo’nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o’zbekistondagi tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, ularning kelib chiqish tarixi, joylashuvi va boshqa ko’pgina ma’lumotlar bayon etilgan. Yurtimizda ko’plab me’moriy obidalar bor. Shulardan eng saralari va eng

mashhurlari haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar. Tarixiy obidalar, mustaqillik, madrasa, qal’a, yodgorliklar, maqbara, minora.

Kirish. Har bir davlatda xalqining o’tmishi va ulug’vor tarixini eslatib turuvchi tarixiy obidalar va yodgorliklar mavjud. Ushbu yodgorliklar orqali inson ma’naviy ozuqa oladi, o’z davlatining tarixidan faxrlanadi va g’urur tuyg’usini his etadi. Dunyoda inson qo’li bilan yaratilgan va necha ming yillardan beri saqlanib, o’z jozibasini yo’qotmay kelayotgan tarixiy obidalar ko’plab uchraydi.O’zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me’moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi. Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari YUNESKO ning “Butun dunyo me’rosi” ning maxsus ro’yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me’moriy inshoatlar o’tmish zamonlarni o’zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o’ynaydi. Birgina Samarqand misolida olib qarasak, u yerni “Sayqali ro’yi zamin” deb atalishi bejiz emas. Bu hududda Sherdor, Tillakori, Ulug’bek, Bibixonim madrasalari va ko’plab boshqa tarixiy binolar joylashgan. Ularning har biri takrorlanmas go’zallikka ega. Shu xususiyatlar orqali Registon maydoni butun dunyo xalqlarini o’ziga jalb etib kelmoqda. Bugungi kunda O’zbekistondagi yodgorliklar go’zal va ulkan. Bu yurtda qadim xarobalar, madrasa, maqbara va minoralarda saqlanib qolgan qadim tarixning nafasini his etish mumkin. Zamonaviy madaniy taraqqiyotning hozirgi pallasida o’zbek xalqining o’z o’tmishi va tarixini chuqur o’rganishga bo’lgan qiziqishi oshib bormoqda. O’zbekistonda ko’plab tarixiy obidalar bor.O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo'qon. Shahrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi O'tmishimizni avaylash, tarixiy obidalarni e'zozlash, asori-atiqalarni, qolaversa, xalqimizning buyuk o'tmishi, yashayotgan ijtimoiy hayoti va kelajagi bilan bevosita bog'liqdir. Bu xususiyatlar millatimiz va xalqimizning milliy qadriyati bo'lib, azaldan ularning qon-qoniga singib ketgan . Har bir tarixiy obidaning o’ziga xos kelib chiqishi , ko’rinishi, joylashuvi bor. Keling, shularni ko’rib chiqamiz.

Sitorai Mohi-hosa — “Yulduzlar va oy bilan barobar saroy”. Arxitektura uslublarining bunday noodatiy uyg‘unligi boshqa hech qayerda uchramaydi. Ayni damda qarorgoh binosida amaliy san'at muzeyi joylashgan. Biroq asosiy eksponat, albatta, saroy binosining o‘zidir. Aynan shu yerdan Buxoroning so‘nggi amiri Afg‘onistonga qochib o‘tishga majbur bo‘lgan.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023





Buxoroga borib, shu qadimiy shaharni ko’rgan kishilarning barchasi minoralarning tepalaridagi g’alati ko’rinishdagi «qalpoqlarga» e’tibor bergan bo’lsalar kerak. Bular laylak uyalaridir. Umidning timsoli bo’lgan bu oppoq qushlar shaharning ramzi, uning barqarorligi va sadoqatining ham ramzi bo’la oladi. Boy go’zal shahar juda ko’p marta turli-tuman dushmanlarning bosqinchilik hujumlarining maqsadi bo’lgan, mo’g’ul-tatarlarning bosqini eng og’ir, yer bilan yakson qiluvchi darajada bo’lgan edi. Lekin Buxoro har gal qaytadan aynan o’sha joyda tiklanib, o’z zamini-yu a’analariga sodiq bo’lib qaytadan barpo bo’lar edi. Buxorodagi o’rta asrlar me’morchiligining alohida xususiyati – ko’cha yoki maydon bilan bir-biridan ajralib turgan va old yuzasi, darvozalari bilan bir-biriga qarab turgan ikkita ulkan inshootdan iborat bo’lgan majmualarning barpo etilishi edi. Buxorodan dunyoga taniqli bo’lgan tarixchi olim Narshaxiy, yirik shoirlar Rudakiy va Daqiqiylar kelib chiqqan. Lekin ayni shu shaharda, odamlarning gap-so’zlariga qaraganda xalqning sevimli namoyandasi, o’tkir so’zli «tinchlikni buzuvchi» latifago’y Xo’ja Nasriddin Afandi ham yashagan. Hazilkash donishmand Afandining latifalari va teran fikrlari son-sanoqsizdir.

Ark — Markaziy Osiyo ko‘hna shaharlaridagi hukmdorlar qarorgohi joylashgan qal’aband o‘rda. Yozma tarixiy manbalarda ko‘handiz, diz, koh, qasr, qal’a, hisor nomlari bilan ham tilga olinadi. Tabiiy baland tepa yoki maxsus yaratilgan baland do‘nglik ustiga qurilib, atrofi baland devor bilan o‘ralgan, bir yoki ikki darvozasi bo‘lgan. Ark ichida hukmdorlarning, amaldor va lashkarboshilarning uy-joylari, davlat devonlari. zarbxona, masjid, sardoba va boshqa binolar bo‘lgan. Buxoro arki, Qo‘qon o‘rdasi, Ko‘hna ark tashqi qal‘aband devorlari, ichkaridagi serhasham saroy binolari saqlanib qolgan. Samarqanddagi Amir Temur bunyod etgan Arki Oliy va Chaqartosh qo‘rg‘on binolarining qoldiqlari, tashqi qal‘a devorlari XIX asrda mustamlaka ma’muriyati tomonidan atayin buzib tashlangan.


www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023






Ichan qal’a — O‘rta Osiyodagi yirik va noyob me’moriy yodgorlik. Xivaning ichki qal’a (Shahriston) qismi Ichan qal’a shaharning Dishan qal’a (tashqi qal’a) qismidan kungurador devor bilan ajratilgan. U Xiva raboti (Dishan qal’a)dan baland qo‘rg‘ontepaga o‘xshab ko‘rinadi. Ichan qal’a ga 4 darvoza (Bog‘cha dar-voza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza)dan kirilgan.Xorazm xalq me’morligining ajoyib obidalari: madrasa, masjid, saroy va minoralar, asosan, Ichan qal’a da undagi me’moriy yodgorliklarning yaratilish tarixi, asosan, 4 davrga taalluqli: birinchisi Xorazmning qadimiy davridan to mo‘g‘ullar istilosi davriga qadar, bu davrdan Ko‘hna arkning g‘arbiy devori, qal’a devorining shimoliy sharqiy burchagidagi qadimiy davrga mansub burj va qal’a devori qoddiqlari saklanib qolgan.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023





Toshkent boshqa tarixiy shaharlarga nisbatan tarixiy yodgorliklarga boy bo‘lmasa-da, kelgan har bir mehmon ko‘rmasdan ketmasligi kerak bo‘lgan bir nechta obidalar bor. Shulardan eng mashhuri Toshkentning Eski shahar qismida joylashgan qadimgi Kaykovus anhori bo‘yidagi Hazrati Imom majmuasidir. Ushbu majmua turli davrlarda qurilgan me’moriy obidalar jamlanmasidir.

O’tmishimizni avaylash, tarixiy obidalarni e’zozlash, asori-atiqalarni, qolaversa, xalqimizning buyuk o’tmishi, yashayotgan ijtimoiy hayoti va kelajagi bilan bevosita bog’liqdir. Bu xususiyatlar millatimiz va xalqimizning milliy qadriyati bo’lib, azaldan ularning qon-qoniga singib ketgan. Mamlakatimiz hududida mavjud bo’lgan to’rt mingdan ziyod moddiy-ma’naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro’yhatiga kiritilgan. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og’zaki ijodidan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan mimg-minglab qo’lyozmalargacha bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir. Bunchalik katta me’rosga ega bo’lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. https://uzreport.news/society/o-zbekistondagi-ziyoratgohlar-ro-yxati-yagona-milliy-turistik-axborot-portaliga-joylashtir
2. https://kun.uz/uz/news/2017/06/04/uzbekistondagi-albatta-boris-kerak-bulgan-20-ta-azojib-zoj
3. http://uztarix.narod.ru/tarixiy_obidalar.html

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

4. https://adu.uz/uz/news/article/1026
5. https://meros.uz/object/ichan-qala
6. https://www.savol-javob.com/ozbekistondagi-tarixiy-obidalar-royhati/